

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги
Бухоро вилояти ҳокимлиги
Абу Али ибн Сино номидаги Бухоро давлат тиббиёт институти
Ибн Сино жамоат фонди
ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий комиссияси

Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan
Bukhara regional State administration
Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sino
Avicenna Public Foundation
National Commission of the Republic of Uzbekistan for UNESCO

АБУ АЛИ ИБН СИНО (АВИЦЕННА): БУЮК МЕРОС ВА ЦИВИЛИЗАЦИЯ

ХIII ХАЛҚАРО ИБН СИНО ЎҚИШЛАРИ - ИЛМий АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ

2025 йил 21-23 ноябрь кунлари Бухоро шаҳри



COLLECTION OF MATERIALS

**THE XIII INTERNATIONAL AVICENNA READINGS -
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE**

ABU ALI IBN SINO (AVICENNA): THE GREAT HERITAGE AND CIVILIZATION

November 21-23th, 2025 in Bukhara city



СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

**ХIII МЕЖДУНАРОДНЫХ АВИЦЕННОВСКИХ ЧТЕНИЙ -
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

АБУ АЛИ ИБН СИНО (АВИЦЕННА): ВЕЛИКОЕ НАСЛЕДИЕ И ЦИВИЛИЗАЦИЯ

21-23 ноября 2025 г., г. Бухара

Таҳрир хайъати

Раис:

Худаяров А.А. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазири,
Ибн Сино жамоат фонди Васийлик Кенгаши раиси

Аъзолари:

проф. Тешаев Ш.Ж. Абу Али ибн Сино номидаги Бухоро Давлат тиббиёт институти ректори

академик Убайдуллаев А.М. Ибн Сино жамоат фонди бошқаруви аъзоси

проф. Джалилов Х.К. Ўзбекистон Республикаси Давлат фармакопеяси бош муҳаррири,
Ибн Сино жамоат фонди илм-фан буйича маслаҳатчиси

Махмудов Н.А. Ибн Сино жамоат фонди бошқаруви раиси

проф. Нуридуллаева К.Н. Фармацевтика хавфсизлиги марказининг фармакопея қўмитаси раиси,
Ибн Сино жамоат фонди ходими

Туляганова К.А. Ибн Сино жамоат фонди Тошкент вилояти филиали раҳбари

ф.-м.ф.н. Сагатов М.М. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Матбаа бўлими бошлиғи

ABU ALI IBN SINONING ISFAXONDAGI ILMIY IJODI

Jaloliy B.A.

Urganch davlat tibbiyot institute

Abu Ali ibn Sino - musulmon tabibi, o'rta asrlarningeng mashhur va nufuzli, islom dunyosi faylasuf olimlaridan biri hisoblanadi. U, ayniqsa, Aristotel falsafasi va tibbiyoti sohalariga qo'shgan hissasi uchun e'tiborga sazovor bo'lgan. U yozgan katta falsafiy va ilmiy ensiklopediya bo'lgan "Kitob ash-shifo" ("Davo kitobi") va "Al-Qonun fi al-tibb" (Tibbiyot qonuni), tibbiyot tarixida dunyodagi eng mashhur kitoblardan biridir. Avitsennaislomiy intellektual sahnaga bo'sh chiqmadi. Al-Kindiy, birinchi islom peripatetik (Aristotelchi) faylasufi va turk polimati al-Farobiy, Aristotelning metafizika asarini ibn Sinodan oldinroq tarjima qilib, sharhlashgan edi. Biroq, bular orasida Ibn Sino sharhlagan asar alohida o'rin kasb etdi. Avitsennaning o'z hayoti haqidagi shaxsiy ma'lumotlariga ko'ra hamda o'zining ko'p yillik shogirdi al-Juzjoniyning yozuvlarida aytilishicha, u 10 yoshida Qur'anni to'liq o'qib, yod olgan. Murabbiy Natiliy yoshlarga boshlang'ich mantiqni o'rgatgan va ko'p o'tmay ibn Sino o'z ustozini ortda qoldirib, mustaqil o'rganishga kirishgan. 16 yoshida Avitsenna tibbiyotga murojaat qildi, bu fan bo'yicha u samarali uslubga ega ekanligini da'vo qildi. Buxoro sultoni saroy tabiblarini dovdiratgan dardga chalinganida, Ibn Sino uning yoniga chaqirilib, uni davolaydi. Minnatdorchilik sifatida sulton unga Somoniylar davri shoh kutubxonasini ochdi, bu tasodifiy xayrixohlik Ibn Sinoni fan va falsafaning chinakam timsoli bilan tanishtirdi. Ibn Sino o'zining ajoyib yozuvchilik faoliyatini 21 yoshida boshlagan. Uning nomi bilan 240 ga yaqin asarlar saqlanib qolgan. Ushbu asarlar matematika, geometriya, astronomiya, fizika, metafizika, filologiya, musiqa va she'riyat kabi ko'plab sohalarni rivojlantirishga bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Ilm yo'lidagi rivojlanish qiyinchiliklari, ko'pincha o'sha davrdagi shiddatli siyosiy va diniy nizolarga duchor bo'lgan Avitsenna hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmagan va ko'chib yurish zarurati bilan to'sqinlik qilgan. Ibn Sino Isfaxonda, "Ala al-Dawlah" ostidayo'qotgan tinchlik va behavotirlikni topdi. Agar Ibn Sinoni hayotida xalqoniy kunlar o'tkazgan deyish mumkin bo'lsa, bu kunlar shubhasiz Isfaxonda bo'lgan, u erda u siyosiy fitnalardan himoyalangan va har juma kuni o'z ulamolar mahkamasini o'tkazib, xohlagan mavzularni muhokama qilishi mumkin edi. Ibn Sino ana shunday farovon sharoitda o'z maktabini yaratdi, ko'plab asarlar, xususan, "Kitob ash-shifo"ni tugatdi, "Danshanama-i 'ala'iy" ("Donishmandlar kitobi") va "Kitob al-najot" ("Najot kitobi") ni yozdi hamda yangi va aniqroq astronomik jadvallarni tuzdi. Isfaxon podshosining yurishlaridan birida Ibn Sino og'ir oshqozon kasaliga chalinib, uni tuzata olmaydi. Ibn Sino 1037 yil iyun oyida notanish odamga vasiyatini aytib, vafot etadi. O'z vasiyatida u barcha qullarini ozod etib, barcha mol-mulkini kambag'allarga tarqatishlarini so'raydi. Avitsenna Xamadonda shahar devori ostiga ko'milgan, oradan sakkiz oy o'tgach, uning xoki Isfaxonga olib o'tiladi va amir maqbarasiga qayta ko'miladi.

"AL-ISHORAT VA AT-TANBIHOT" KITOBINING ARXITEKTONIKASI VA UNING GERMENEVTIK TAVSIFI

Jurayev Sh.S.

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va germenevtika kafedrası*

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti kitob fondida (2213) Shayxurrais Abu Ali Ibn Sinoning "Al-ishorat" degan kitobi saqlanib kelinmoqda. Kitob ikki qismdan iborat:

1) الاشارات في المنطق
2) الاشارات و التنبيهات في الحكمة

Kitob muqovasi rangi yashil, chet qismiga qizil rang tortilgan. Ikkinchi sahifaga oddiy qo'g'oz bilan qo'shimcha sifatida Ibn Sinoning ba'zi axloqiy asarlari va Forobiy haqida ma'lumotlar yozib qo'yilgan. Kitob holati o'qishga yarim tayyor ko'rinishda, oradagi sahifalarda uzilish va yaroqsiz holatga kelib, qayta restavratsiya qilingan. Kitobni o'qish va tushunishga harakat qilgan jarayonimda 13086 raqami bilan yozilgan qisqa ta'rifga duch kelib, ushbu raqam ostidagi kitobni ko'rganimda Yunusxon Hakimjonov boshchiligidagi Sharqshunoslik institutining restavratori kitob ustida olib borgan tiklash ishlarini tugatganligi ma'lum bo'ldi.

Abu Ali ibn Sinoning bu asari o'sha davr falsafiy fikri va mafkurasini tushunishda, olimning dunyoqarashini belgilashda g'oyat katta ahamiyatga ega. Olim "Ishorat" da borliq, jismlar, jihatlar, jon kabi juda ko'p masalalarga to'xtalib o'tgan. Uning mantiqqa oid va boshqa ko'p fikrlari mazkur asaridan o'rin olgan.

"Kitob sharqshunoslik institutida yagona nusxadan iborat edi. U 745 hijriy (1344 milodiy) yilda Isfahonda ko'chirilgan bo'lib, qo'ldan qo'lga ko'p o'tgani sababli juda titilib ketgan edi. Buning ustiga uni ko'chirgan xattotning xusni xat qonun-qoidasiga rioya qilmasdan yozganligi sababli kitobni o'qish ancha qiyinlik tug'dirar edi.

Bu asarni tiklash ham ancha mashaqqatli ish edi. Yunusxon Hakimjonov o'zining yaxshi xattotligi, arab tilini puxta bilganligi sababli bu sharaflı vazifani bajarishga muvoffaq bo'la olgan. Asarda uchragan ko'p noaniqliklar va o'chgan o'rinlar Nasriddin Tusiy va Faxriddin Roziylarning Ibn Sinoning shu asari ustiga yozgan sharhlariga qarab tuzatildi, ikki xilliklar kritik tekst prinsipida bet so'ngida izohlandi¹.

Har bir sarlavha xattotlar odatiga ko'ra, rangli siyohlar bilan ajratilgan. Kitob so'ngida tiklovchi xattotning xotimasi ham bor. Bunda ko'chirilgan kitob tarixi va ko'chirish sabablari haqida qisqacha ma'lumot bergan.

Yunusxon Hakimjonov ko'chirgan kitob nusxasining boshlanish 1-sahifasi bilan Eron tadqiqotchisi Muhtaba Zayeri ko'chirgan nusxasining 187-sahifasi birinchi bo'lim (النمط الأول)ning boshlanishi bir-biriga mos keldi.

Xotima va vasiyat Yunusxon Hakimjonov ko'chirgan nusxasining 65-sahifasida keltirilgan. Undan keyin mantiq qismi boshlangan va muallif o'zi haqida ma'lumotlarni yozib asarga xulosa bergan. Mazkur kitob 1958-yil 15-yanvarda Toshkentda ko'chirib, tugatishga muvassar bo'lingan. Hozirgi kunda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo'lyozmalar institutida "Al-Ishorat va at-tanbihot"ning ikki nusxasi mavjud bo'lib, kitob ikki qismdan iborat.

Muallifning muqaddima qismida keltirilgan manbalarga ko'ra, "Al-Ishorat va at-tanbihot" kitobi Abu Ali ibn Sinoning eng so'ngi falsafiy asaridir. Aytish mumkinki, u so'ngi uch oxirgi fasli irfon va tasavvufni o'z ichiga olgan yagona falsafa kitobidir. Shayx bu kitobida irfon atamalarini eng yaxshi tarzda izohlab bergan va shuning uchun ham Fahriddin Roziy Ibn Sinoning Ishoratiga yozgan sharhida mantiq va falsafa masalalarida ba'zi raddiyalarini bergan bo'lsada mazkur asarning to'qqizinchi bobining boshida irfon masalalari haqida shunday jumla uchraydi:

إِنْهَذَا الْبَابُ أَجَلَ مَا فِي هَذَا الْكِتَابِ، فَإِنَّهُ رَتَّبَ فِيهِ
عُلُومَ الصُّوْفِيَّةِ تَرْتِيبًا مَا سَبَقَهُ إِلَيْهِ مِنْ قَبْلِهِ وَ لَا لِحَقِّهِ مِنْ بَعْدِهِ

"Bu bob ushbu kitobning eng muhim va eng qimmatli bobidir, chunki u yerda Abu Ali ibn Sino so'fiylarning ilm va bilimlarini o'zidan oldin hech kim qilmagan, undan keyin ham hech kim qo'shmagan tarzda tartibga solgan"².

Falsafa faniga ilm ahlari, unga qiziquvchilar tomonidan o'tkazilayotgan ushbu "Ishorat" tarjimasi, unga berilgan sharhi ko'p yillik mehnat mahsuli ekanligiga asoslidir. Bu kitobni yangi avlodga to'liq holda yetkazish uchun Hasan Malikshohiyning Tehron universitetida yegima besh yildan ortiq vaqt maboynda "Ishorat" matni va sharhini o'rganishdan tashqari, bakalavr va magistrantlar uchun ushbu kitob bilan mutolaa olib borganligi qayt etiladi. Jumladan, faylasuf kitobning kirish qismida shunday deydi: "Turli tafsirlarga murojaat qilganimgan so'ng, "Ishorat"ning aksariyat masalalari, bo'limlari va boblari aqlim quvvatiga aylanib, matndagi iboralar xotiramga muhrlanib qoldi"³.

"Kitob al-ishorat va at-tanbihot" 1035-1036 yillarda Isfaxonda yozilgan Ibn Sinoning eng mukammal falsafiy asari bo'lib, 1340-1344 -yillarda ko'chirilgan. Kitob ikki jildan iborat bo'lib, uning birinchi qismi mantiqqa, ikkinchi qismi esa fizika, metafizika, irfon va tasavvuf masalalariga oiddir.

Birinchi – mantiq ilmi. U ilmda mutanosiblikdir (tarozi);

Ikkinchi – fizika (tabiat ilmi). Bu narsalarning harakatlanishi va aylanib turishini ko'rish mumkin bo'lgan ilmdir;

Uchinchi – metafizika (ilohiyot) ilmi. Bu ilm tabiatdan tashqaridagi ilmdir.

To'rtinchi – tasavvuf (irfon) ilmi.

Mantiqqa bag'ishlangan qismi o'n bo'limdan (نهج) iborat bo'lib, har bir bo'lim kichik fasllardan iboratdir. Bo'limlarni "Nahaj" deb nomlagan. Nahaj so'zi ochiq, oydinlik, yo'l ma'nolarida qo'llaniladi. Birinchi bo'lim (النهج الأول) "mantiqqa kirish" deb nomlanib, o'n yetti faslni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bo'lim (النهج الثاني) "jins va tur" haqida bo'lib, o'n bir fasldan iboratdir. Bu bo'limda esa, beshta oddiy so'z haqida boradi: Jins (جنس), tur (نوع), turlar o'rtasidagi farq (فصل), xossa (atribut) (خاصة), ta'rif (حد) va (رسم).

Uchinchi bo'lim (النهج الثالث) "Xabar tarkibi" haqida o'nta fasl bilan davom ettirgan. Shu tartibda mantiqning tuzilishi va tartibini o'n bo'limdan iborat bo'lgan fasllar asosida chiroyli bezatib, izohlar bilan to'ldirgan. Ishoratning mantiqqa bag'ishlangan qismining boshlanishi basmala bilan boshlanib, muallif haqida muqaddimasi mavjud. Kitobning kirish qismida Arastu mantiq'i bilan tanishganligi va o'rganganligi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Kirish qismida muallif ishni mantiqiy taqdimot bilan boshlashini, so'ngra fizikaga o'tishi va metafizika bilan bog'liq (علم الطبيعة و ما قبله) masalalarni ko'rib chiqayotganligini aytadi.

Birinchi bo'lim mantiqning maqsad va vazifalarini belgilaydi. Ya'ni, birinchi qismini "Al-qismul avval fi ilmul mantiq" (mantiq ilmidagi birinchi qism), deb yozadi. Ikkinchi qismini esa, "An-nahajul avval fi g'aradul mantiq" (mantiq manfaatlariga olib boruvchi yo'l) deb nomlaydi. Manashu qismida Abu Ali ibn Sino shunday yozadi: "Mantiq inson tafakkurining boshlang'ich qismi bo'lib, hayoti davomida ko'p uchraydigan masalalarga yechim topish uchun xizmat qiladigan tushunchadir", deb ta'kidlaydi.

¹ Irisov A. O'zbekiston madaniyati. № 24. (229) 19-mart, chorshanba, 1958-yil.

² Fahriddin Roziy. "Sharx ul-Ishorat". -Tehron. B. 213.

³ Hasan Malikshohiy. Ibn Sina. el-İsharat ve't-Tenbihat. Tehran 1988. Ş. 27.

Kitobning ikkinchi qismi ham o'n bo'limdan iborat bo'lib, unda fizika, metafizika, irfon va tasavvuf masalalariga bag'ishlangan kichik fasllar mavjud. Abu Ali ibn Sino bu kitobning fizika va metafizika bo'limlarini nomlashda "Namat"¹, deb izohlaydi. Kitobning ilk uch "namat" bo'limlari fizikaga aloqadordir. Ibn Sino fikriga ko'ra, fizika – bu tabiiy jamlarga bog'liq bo'lgan ba'zi uslub va mohiyatlarni (narsalarni) o'rganadi. Bunday yondashuv nafaqat oy ostidagi dunyo jismlariga, balki osmon sferasidagi jismlarga ham tegishlidir. Shunga asos sifatida bu tamoyillar uchta: materiya, shakl va aql. Birinchi namat, jismlarning mohiyatini (jismlarning moddasi yoki haqiqati va unga nima bog'liqligini o'rganish) anglatadi. Ushbu namat o'ttiz besh faslni o'z ichiga oladi. Birinchi besh faslida atomistik nazariyaning mohiyati tushuntirilib, ular jismlar sifatida tuzilgan kesilmaydigan, sinmaydigan va bo'linmaydigan qismlardan iboratligi keltiriladi. Ibn Sinoning fikricha, jismlar haqiqatda uzluksiz bo'lsa-da, tashqi sezgilar tomonidan tasdiqlanganidek, ular potensial bo'linish xususiyatiga ega, ayniqsa, ularning hayoliy bo'linishi cheksizdir. Xuddi shunday tartibda jismlarning lokomotiv almashinuvi bo'lgan harakat va harakatning o'lhov birligi bo'lgan vaqt ham cheksizlikda bo'linishi beshinchi faslda keltiriladi.

Materiyaning mavjudligini tasdiqlovchi dalillar oltinchi va to'qqizinchi fasllarda keltirilgan bo'lib, bunda jismlar haqiqatda uzluksiz, lekin potensial bo'linishi mumkin bo'lganligi sababli, ular bo'linish va uzluksizlik yoki diszyunksiya, konyunksiyani qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu qobiliyat o'z-o'zidan uzluksiz bo'lgan narsaga tegishli bo'lib, u bilan tana shakli nazarda tutiladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, bo'linish va uzluksizlikni qabul qilish qobiliyati tegishli bo'lgan narsaga materiya, deyiladi.

10-faslda miqdor va jismoniy shakl o'zi joylashgan va u jismoniy shakl bo'lgan narsa bilan birlashtirilganligini ta'kidlaydi. Bunday birlashtirish birinchi masala (al-hayula al-ula) dir. Ushbu fasldagi mazmun shuni anglatadiki, materiya har xil miqdorlarni qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli, narsa miqdorining kattaligi yoki kichikligi boshqa narsaga emas, balki ushbu narsaning materiyasi qancha miqdorga ega bo'lishi bilan belgilanadi.

11 dan 13-faslgacha shakl materiyadan xoli bo'lmahligini isbotlab beradi. Shunday tartibda birinchi namat materiya xususida bo'lib, uning mavjudligini dalillar bilan tushuntiradi.

Ikkinchi namat, jismlarning yo'nalishi, birinchi va ikkinchi jismlarning aloqadorligini izohlaydi. Uchinchi namat, yer va samodagi jismlar xususidadir.

Metafizika bo'limida esa, borliqning turlari va kamchiliklari haqida mulohaza yuritgan. Shubhali joyi shundaki, Ibn Sino "Al-Ishorat va at-tanbihot" asarida "metafizika" deganda nimani nazarda tutganligini ochiqlamagan. Uning "Kitob ash-Shifo", "An-Najot", "Donishnoma" kabi boshqa yirik asarlarida bu terminga aniqlik kiritib o'tgan. Ya'ni, ushbu asarlarida "birinchi falsafa", "ilohiy ilm", "mutloq hikmat", deb ham atagan metafizika atamasi shu ma'nolarni to'la anglangan nazariy falsafa tamoyillarini namoyon etishini bildirib o'tgan. Boshqacha qilib aytganda, metafizikaning predmeti fizika va matematikada bo'lgani kabi, unga alohida bir narsa bog'langan darajada emas, balki ob'yektlarga bog'langan miqdor, sifat, harakat va reaksiya tarzida mavjuddir.

Abu Ali ibn Sino fizika qonunlarini "Al-Ishorat va at-tanbihot"ning ilk uch bo'limida izohlagandan so'ng, metafizika masalalarini "Borliq va uning sabablari" bo'limida, ya'ni to'rtinchi namatda yigirma to'qqiz faslni o'z ichiga olgan bu bo'lim orqali mohiyat va borliq sabablarini farqlash, shuningdek, boshqa barcha narsalarning mavjudligiga sabab bo'lgan sababsiz mavjudot mavjudligini isbotlashdir. Aniqroq qilib aytganda, bu bo'lim orqali mohiyat sabablari bilan emas, balki mavjudlik sabablari bilan shug'ullanadi. Sababsiz mavjudotning mavjudligi ko'rsatilg'ch, uning tabiati batafsil muhokama qilinadi.

Beshinchi namat "في الصنع و الإبداع" (yaralish va yaratish) haqida bo'lib, unda oddiy odamlarning biror narsa paydo bo'lgandan keyin uning mavjudligi sababiga bo'lgan ehtiyojga to'xtaydi, degan qarashlaridan boshlanib, narsalarning zaruriyati va imkoniyati haqidagi turli qarashlar bilan yakunlanadi.

Oltinchi namat "في الغايات و مبادئها و في الترتيب" (Tartibga solingan maqsad va g'oyalar) haqidabo'lib, tartibga soluvchi borliqning yaralishidagi sabablar va g'oyalar bayon etilgan. Nasriddin Tusiy oltinchi namatning qonunlarini ochiqklar ekan, Faxriddin Roziydan farqli o'laroq, bu bo'limda fasllarning masalalarini va izohlarini shunday tushuntiradi: Ibn Sino to'rtinchi namatda borliqning ilk yaratilishini va mumkinlarning borlig'ini ilk sabab sifatida isbotladi, zaruriy borliqni ilk sababi sifatida tushuntirdi. Beshinchi namatda esa bu masala yuzasidan zaruriy borliqning kamchiliklari yoritildi va sabablarning sababi orasidagi masofa borligini o'rta qo'ygan. Bu namatda esa, to'g'ridan to'g'ri sabablarning g'oyalariga ishora qiladi.

Yettinchi namatda esa, "mavhum borliq"ning sabablari va holatlarini bayon etish bilan "ruhning tanadan ko'chishi"ni aniq va mazmunli shaklda tushuntirib bergan.

Sakkizinchi namat "Baxt, saodat" haqida bo'lib, unda insonning yashash tarzi, quvonchi, lazzati haqida fikrlar bildirgan.

To'qqizinchi namat "Oriflarning maqomi" haqida bo'lib, unda ilmi inson yo'li, so'fiylar hayoti haqida izohlar keltirgan. "Darhaqiqat oriflarning dunyoviy hayotlarida faqatgina ularga xos bo'lgan, (boshqalarda bo'lmagan) daraja va maqomlari bor. Ularning o'zlariga xos botiniy va zohiriy amallari mavjud bo'lib, ularni bilmaydiganlar rad etadilar, biluvchilar esa, ushbu amallarni ulug'laydilar"². Jumladan, shu qismda "Salomon va

¹ Ibn Sino "Al-Ishorat va at-tanbihot" asarining bo'limlarni "Nahaja" va "Namat" so'zlari ostida ta'riflagan, o'zbek tiliga bo'lim deb qabul qilish mumkin.

² Goichon A.M. Ibn Sina (Avicenne). Livre des directives et remarques (Kitab al-issarat wa l-tanbihat). –Paris, 1999. –P. 248.

Ibsof” qissasini misol tariqasida keltirgan.

O‘ninchinchi namat “Mo‘jizaviy sirilar” haqida bo‘lib, unda oriflarning hayot tarzi va amallari xususida mulohazalar bergan.

Bu kitobni tarjima va izohlashda matnlardagi iboralarga bog‘liq so‘zlarni va Abu Ali ibn Sinoning g‘oyalarini anglashga oid bahslarni mazmunini to‘liq ochib berishga harakat qilindi. Tarjima jarayonida imkon qadar tushunchalarning asli ma‘nosida berishga harkat qildim.

Butun islom mutafakkirlarining oliy maqsadi ideal jamiyatni shakllantirishda o‘z g‘oyalarini yoritib berish orqali baxtga erishish masalasini ilgari surgan. Chunki, Islom mutafakkirlarining baxt tushunchasiga ta‘rif berishi oliy maqsadi bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. So‘ngra Islom mutafakkirlarining maktablarida qisqacha ta‘riflar berish boshlanganini ko‘rish mumkin. Ibn Sinodan so‘ng kalom, falsafa, irfon va tasavvuf ma‘nolari nurga o‘xshatildi, va falsafiy maktablar haqida ko‘proq to‘g‘ri bir xulosada bo‘lishimiz mumkin. Umuman olganda, Islom mutafakkirlari haqiqatga erishish va ilm olish uchun to‘rt usulni ilgari surganlar: Sharq mashshoiyyun vakillarining usuli, kalom usuli, irfon va tasavvuf usuli.

Abu Ali ibn Sino o‘zining so‘nggi falsafiy asari bo‘lmish “Ishorot va tanbihot”ning sakkizinchi bo‘limida baxtning turlari va eng mukammal baxt haqida so‘z yuritarkan shunday deydi: “Ba‘zilar baxtni faqat moddiy lazzatlarga erishish va vaqtinchalik hissiy ehtiyojlarni qondirish deb o‘ylashadi”. Abu Ali ibn Sino bu faslda shu so‘zlarni bayon etgan holda uni turli tomonlardan qattiq tanqid qiladi va bu boradagi o‘z fikrini quyidagicha ifodalaydi: Keng omma nazarida umumiy tushunchasi shundayki, baxt nafs lazzatlardan bahramand bo‘lish va idrok etishdan iborat. Kishilar lazzatning faqat sezgilar orqali his qilish va idrok etish mumkin, deb hisoblaydi va sezgi a‘zolari orqali olinmagan lazzatni yo inkor etadilar yoki hissiy lazzat bilan solishtirganda ularni yo‘q deb hisoblashadi. Holbuki, botiniy va aqliy lazzat hissiy lazzatlarga qaraganda bir necha barobar kuchlidir.

Ishorat kitobida masalalarning aksariyati mashshoiyyun falsafa usuli tilga olingan bo‘lsa ham, kitobning so‘ngi uch bobida irfon va tasavvuf usullari tahlil qilingan, mavzular orasida kalom usuli alohida ajralib turadi. Ishroq usuli kamdan kam uchraydi.

Abu Ali ibn Sino asarlarida falsafa, kalom va irfon bilan birgalikda uch maktabga oid xususiyatlarni o‘zining asarlarida mujassamlashtirgan mutafakkirlardan biridir. Avvalo, shuni ta‘kidlash kerakki, falsafaning ishi daliliy fikr yuritishga (deduksiyaga) asoslanadi va bular olti qism aporiyalardan iborat. “Ishorat” kitobida hammasi ham daliliy asoslarga ega bo‘lmagan, balki bahsli xarakterga ega bo‘lgan masalalar ko‘tarilgan.

AVICENNA’S LEGACY IN THE HUMANITIES AND THE PERSISTENCE OF CULTURAL MEMORY

Khajiyeva F.M.

Bukhara State University

The global recognition of a region is often anchored not by its political borders but by its association with transcendent intellectual figures. Uzbekistan, and specifically the historical city of Bukhara, exemplifies this phenomenon. Its name is powerfully evoked by the legacy of Abu Ali ibn Sina, known in the West as Avicenna. A millennium after his life, his name acts as a universal cipher for scientific and philosophical excellence. This article employs Jan Assmann’s theory of cultural memory to argue that Avicenna’s monumental contributions have secured a perpetual place for his homeland in the world’s collective consciousness. By tracing how his work is remembered and re-appropriated, we can illuminate the process by which a historical figure becomes a foundational pillar of cultural identity. Through this lens, Bukhara emerges not merely as a geographical location, but as a durable symbol within our shared intellectual history.

This examination focuses on the portrayal of Avicenna in two influential modern literary works from different cultural spheres: Noah Gordon’s *The Physician* (USA) and Maqsud Qoriyev’s *Ibn Sino* (Uzbekistan). These novels reflect distinct yet complementary perceptions of his legacy. Gordon’s work presents Avicenna as a symbol of intellectual authority and scientific rationality, embodying the Western fascination with the Islamic Golden Age. In contrast, Qoriyev’s novel portrays him as a national and spiritual figure, rooted in the cultural memory of Central Asia. A comparative analysis of these works highlights how modern literature preserves and reinterprets a shared intellectual heritage, fostering synergy between East and West.

The analysis of Avicenna’s representation can be fruitfully approached through Cultural Memory Theory, developed by Jan and Aleida Assmann. This framework explains how historical figures and intellectual achievements are remembered, reshaped, and transmitted across centuries. Unlike communicative memory, bound to living generations, cultural memory encompasses long-term symbolic forms like literature, monuments, and institutions that preserve identity across time (J. Assmann, 1995; A. Assmann, 2011).

Central to this theory are “figures of memory” (*Erinnerungsfiguren*)—individuals or symbols that serve as durable carriers of meaning. Avicenna stands as one such figure. His image is not preserved statically but undergoes continual reinterpretation, ensuring his relevance in new epochs (Erl, 2014).

IBN SINA'S PSYCHO-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF THE QUR'AN	170
Bekmirzayev I.	
ABU ALI IBN SINO TA'LIMOTIDA AXLOQ FALSAFA	176
Berdiev O.L.	
ABU ALI IBN SINO MEROSINING IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI O'RNII.....	178
Ermetova Z.T., Abdullayeva H.T.	
EPISTEMOLOGY IN A VICENNIAN TRADITION.....	178
Insha-Allah Rahmati	
ABU ALI IBN SINONING ISFA XONDAGI ILMIY IJODI	179
Jaloliy B.A.	
“AL-ISHORAT VA AT-TANBIHOT” KITOBINING ARXITEKTONIKASI VA UNING GERMENEVTIK TA'VSIFI.....	179
Jurayev Sh.S.	
AVICENNA'S LEGACY IN THE HUMANITIES AND THE PERSISTENCE OF CULTURAL MEMORY ..	182
Khajiyeva F.M.	
IN IBN SINA'S VIEWS, THE STAGES OF NATURAL EVOLUTION ARE SPIRITUAL AND DIVINE VIEWS.....	184
Mukhamedova N.	
IBN SINA'S VIEWS ON THE SPIRITUAL SOUL GIVING LIFE TO THE HUMAN BODY IN HIS WORK ON THE SPIRIT	184
Mukhamedova N., Makhmatkulov Sh.	
THE CONTRIBUTION OF IBN SĪNĀ'S THEOLOGY TO PHILOSOPHICAL THOUGHT	185
Nurdygulov S., A.A. Ryskiyeva	
AVICENNA, THE OUTSTANDING DOCTOR: A UNIQUE AND WORLD-WIDE MEDICAL LEGACY	187
Nurillayev F.	
IBN SINO TA'LIMOTIDA ETIKA, ESTETIKA, MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT TUSHUNCHALARINING AHAMIYATI	188
Omonova G.S., Axmedova N.M.	
IJTIMOYIY FANLARDA IBN SINO HIKMATLARINI IZOHLI O'RGANISH MASALALARI	189
Ostonaqulov I.	
THE THEORY OF THE POSSIBILITY OF AWARENESS IN ANIMALS BASED ON IBN SINA'S AL-MUBAHATHAT	190
Ghasem Pourhasan, Zahra Haji Shahkaram	
ABU ALI IBN SINO MEROSINING CHET TILLAR RIVOJIDAGI O'RNII	191
Qurbonova G.A.	
AVICENNA'S POETRY – AS A METHOD OF MENTAL TREATMENT	192
Rakhimov M.	
ABOUT IBN SINO'S WORKS IN THE FIELD OF MEDICINE.....	193
Rasulova N.F., Abdiraimova Y.	
IBN SINO'S VIEWS ON THE INFLUENCE OF THE ENVIRONMENT AND A HEALTHY LIFESTYLE ON HUMAN HEALTH	194
Shakirova D.	
THE COLLABORATION OF IBN SINA AND ABURAYKHON BERUNI IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SCIENCE IN THE 10TH CENTURY.....	194
Voronina N.	
ABU ALI IBN SINONING MUSIQA SOHASIDAGI BILIMI.....	195
Yakubova A., Jaloliy A.	
BUYUK TABIB IBN SINO O'GITLARINING OILA TARBIYASIDAGI AHAMIYATI	196
Yuldasheva R.O'.	
КОРРЕЛЯЦИОННАЯ ВЗАИМОСВЯЗЬ ПАРАМЕТРОВ, ОТРАЖАЮЩИХ СОСТОЯНИЕ ЧЕЛОВЕКА В ТРУДАХ АВИЦЕННЫ	196
Абдуганиева Ш.Х.	
НАСЛЕДИЕ ИБН СИНЫ: ФИЛОСОФИЯ, МЕДИЦИНА И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ЗДОРОВЬЮ.....	197
Абдурахмонов Д.Р., Шегай О.А.	